

## **CHABAHAR PORTI: MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI UCHUN STRATEGIK GEOIQTISODIY IMKONIYATLAR.**

*Saparov Siroj Tursunboy o'g'li*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.*

### **Annotatsiya**

Ushbu tezisda Eronning Chabahar porti orqali Markaziy Osiyo davlatlari uchun yaratilayotgan tranzit yo'laklari va savdo imkoniyatlari tahlil qilingan. Port orqali yuk tashish xarajatlarni kamaytirishi, mahsulotlarning Hind okeani orqali jahon bozoriga tezroq olib chiqilishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** transport koridorlari, tranzit logistika, Hind okeani, integratsiya, iqtisodiy xavfsizlik

Eronning janubi-sharqida, Omon qo'ltig'i bo'yida joylashgan Chabahar porti Eronning yagona chuqur suvli porti hisoblanadi va u Hind okeani orqali xalqaro savdoga bevosita chiqish imkonini beradi. Shahid Beheshti va Shahid Kalantari terminallari bilan jihozlangan bu port Eronning strategik infratuzilma loyihalarining yuragi bo'lib, mamlakatni Shimol-Janub transport yo'lagi (INSTC), Afg'oniston yo'nalishi va Markaziy Osiyo tarmoqlari bilan bog'laydi.[1] Eron hukumati bu portni nafaqat milliy iqtisodiy o'sish uchun, balki mintaqaviy savdo va tranzit markazi sifatida ham rivojlantirmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Hindiston va Eron o'rtasidagi hamkorlik doirasida bu portning salmog'i ortib bormoqda – bu orqali Afg'oniston va undan shimolga, Markaziy Osiyoga olib boruvchi yo'nalishlar strategik ahamiyat kasb etmoqda.[2]

Markaziy Osiyo davlatlari – xususan O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog'iston – dengizdan uzoqda joylashgan davlatlar bo'lib, xalqaro bozorlarga chiqishda geosiyosiy va infratuzilmaviy cheklolarga duch kelmoqda. Chabahar porti bu cheklolarni bartaraf etuvchi muqobil transport va savdo yo'lagi sifatida Markaziy Osiyo uchun yuksak geoiqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda.[3] Avvalo, bu port orqali mintaqa davlatlari o'z mahsulotlarini Hind okeani orqali global bozorga tezroq va arzonroq yo'naltirish imkoniga ega bo'ladi. An'anaviy ravishda Kaspiy dengizi, Rossiya yoki Xitoy orqali eksport-importga tayanayotgan mintaqa uchun bu yangi yo'nalish mintaqaviy iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Transport va logistika xarajatlari mintaqa davlatlari uchun doimo asosiy muammo bo'lib kelgan. Chabahr orqali yuk tashish yo'nalishi Afg'onistonning Zaranj–Delaram yo'li orqali Eronning temiryo'l va avtomobil tarmoqlariga ulanib, yuklarni tez va iqtisodiy jihatdan maqbul tarzda Hind okeaniga olib chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Chabahr yo'nalishi orqali yuk tashish an'anaviy yo'llarga nisbatan 30–40% arzon bo'lishi mumkin.[4] Ayniqsa, O'zbekiston va Tojikiston kabi davlatlar uchun bu yo'l paxta, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat va minerallar eksportida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Shuningdek, Chabahr portining faollashuvi Markaziy Osiyo davlatlariga o'z tashqi iqtisodiy siyosatini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Uzoq yillar Rossiyaga iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan mintaqa endilikda Hindiston, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish orqali yangi savdo sheriklarini izlayapti.[5] Bu esa mintaqaning global savdo tizimiga integratsiyasini jadallashtiradi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, 2022–2024-yillar oralig'ida Eron va O'zbekiston o'rtasida yo'l-transport, bojxona va logistika sohalarida tuzilgan bitimlar bu tendensiyaning real ifodasidir.

Bundan tashqari, Chabahr porti mintaqaviy siyosiy xavflarni kamaytiruvchi vosita sifatida ham e'tiborga loyiq. Rossiyaga qarshi sanksiyalar kuchayib borayotgan, Xitoyning geoiqtisodiy ustuvorligi keskin ortayotgan, Pokiston orqali yuk tashish esa siyosiy barqarorlikka bog'liq bo'lgan bir davrda, Chabahr porti barqaror va nazorat qilinadigan alternativani taklif qiladi.[6] AQSh tomonidan Eron portlariga qo'yilgan sanksiyalar fonida aynan Chabahr porti istisno tariqasida sanksiyadan ozod qilingani ham bu yo'lning xalqaro ahamiyatini tasdiqlaydi. Hindistonning ushbu port infratuzilmasiga sarmoya kiritishi, uni 10 yilga ijaraga olgani va bu port orqali tranzit hajmini oshirishga intilayotgani ham Markaziy Osiyo uchun geosiyosiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Chabahr porti Markaziy Osiyo davlatlari uchun strategik geoiqtisodiy ko'priksifatida maydonga chiqmoqda. U nafaqat savdo hajmini oshiradi, balki mintaqaning tashqi iqtisodiy siyosatini diversifikatsiya qilish, transport xarajatlarini kamaytirish, hamkorlikni chuqurlashtirish va barqaror savdo infratuzilmasini yaratishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "The Chabahr Gambit: India's Play for Influence in Central Asia." Observer Research Foundation, 2022. <https://www.orfonline.org>
2. "India, Iran and Chabahr Port." Drishti IAS, 2022. <https://www.drishtiiias.com>
3. "India's Strategic Interests in Central Asia and Afghanistan Go Through Iran." Newlines Institute, 2023. <https://newlinesinstitute.org>

4. "The Role of Iran in Transportation to Central Asia and Its Importance." Arta Rail, 2023. <https://artarail.com>
5. "Accessing Afghanistan and Central Asia: Importance of Chabahar to India." Indian Council of World Affairs (ICWA), 2022. <https://www.icwa.in>
6. "Chabahar-Central Asia Transit Route to Boost India-Iran Cooperation: Raisi." Business Standard, 2022. <https://www.business-standard.com>